

**INVESTITSION SALOHİYATDAN OQILONA FOYDALANISH VA
UNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs moliya va
moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada investitsion salohiyat tushunchasi, uning iqtisodiy o'sishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Hududlar va tarmoqlar darajasida investitsion salohiyatdan oqilona foydalanishning zarurati asoslab beriladi. Muallif investitsiya resurslarining samarali taqsimoti, ularni jalb etish strategiyalari hamda investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar beradi. Shuningdek, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yo'nalishlari yoritilib, ularning natijadorligini baholash indikatorlari ko'rib chiqiladi. Maqolada statistik ma'lumotlar, tahliliy yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsion salohiyat, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya muhiti, resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyaviy faollik, hududiy rivojlanish, xorijiy sarmoya, strategik rejalashtirish*

Investitsion faoliyatni samarali ishlashi uchun qulay muhitni yaratish, uning murakkablik jihatlarini yumshatishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish dolzarblik kasb etadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev (2018) quyidagi "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan" fikrlarni bildirib o'tdi.

Hozirgi sharoitda barqaror va samarali faoliyat olib boradigan iqtisodiy jarayonlarni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar modelini o'zida aks ettiradi. Jumladan, iqtisodiy o'sishning moliyaviy omillari qatorida asosiy ko'rsatkich sifatida investitsion faoliyatni qayd etishimiz mumkin. Zamonaviy



sharoitda esa, investitsion potentsial inobatga olingan holda investitsion jozibadorlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Investitsion jozibadorlik mikro (hudud, korxona) va makro (mamlakat) darajada nazariy asoslarining tadqiq etilishi o`ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni ta`minlash va investitsion potentsialdan oqilona foydalanish uchun quyidagilarga e`tibor qaratish lozim:

- hududlarda investitsion jarayonlarni samarali boshqarish modelini amalga oshirish imkonini beradigan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning investitsion strategiyalarini shakllantirishni qo`llabquvvatlash;

- hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini barqarorlashtirish maqsadida investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy maqsadlilik, tarmoqlararo hamkorlik, investitsion ob`yektlarning manzilliligi bo`yicha institutsionallashtirish darajasini mustahkamlash orqali sinergetik va mul`tiplikatsion samaraga erishish;

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining innovatsion yangilanishiga qaratilgan investitsion faoliyatni jadallashtirish, birinchidan, hududiy tadqiqot institutlarini paydo bo`lishi, ikkinchidan investitsiyalarning innovatsion yo`naltirilganligini ta`minlaydigan diversifikatsiya darajasini oshirish;

- investitsiyalarni tarmoqlararo manfaatdorlik tamoyillari asosida moliyalashtirish asosida amalga oshirish;

- hududlarda investitsion faoliyatni faollashtirish jarayonllarini ta`minlashga qaratilgan ko`p komponentlikka asoslangan ma`lumotlar bazasini ishlab chiqish.

Ta`kidlash lozimki, mamlakat (hudud)larning investitsion jozibardorligini baholashda BERI indeksinpng tutgan o`rni va roli alohida ahamiyatga ega. Mazkur usulning mohiyati investitsion muhitning risklilik darajasini aniqlab berishga yordam beruvchi mezon sifatida qaraladi. Ushbu ko`rsatkichni hisoblashda 15 ta mezon qamrab olingan bo`lib, ular quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- siyosiy barqarorlik;
- deval`vatsiya;
- iqtisodiy o`sish sur`atlari;
- valyuta ayirboshlash;



- shartnomani bajarish imkoniyati;
- ekspertlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari;
- transport va aloqaning tashkil etilganligi;
- xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat);
- milliylik imkoniyati;
- to'lov balansi holati;
- ish haqi va mehnat samaradorligiga xarajatlar;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyatlari;
- uzoq muddatli kreditlash;
- mahalliy boshqaruv va sherikchilik.

Har bir mezon 12 ballgacha bo'lgan tarzda baholanishi mumkin. Ushbu 15 ko'rsatkichning har birini ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqqan holda maksimal ball darajasi belgilangan. Ushbu ko'rsatkichlarning ichida eng muhimi tarzida siyosiy barqarorlik darajasi olinmoqda. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlari, valyuta ayirboshlash, ish haqi va mehnat samaradorligiga xarajatlar, qisqa muddatli kreditlash imkoniyatlari va uzoq muddatli kreditlash kabi mezonlar ham ayni sezilarli ahamiyatga ega bo'lgan omillar qatoriga kiritilgan.

I.f.d. Sh.Mustafakulov (2014), investitsion faoliyatni amalga oshirishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash muhim ekanligini qayd etib o'tadi. Jumladan, iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni yo'naltirish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishiladi, deya ta'kidlab o'tadi:

- ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarini miqdor va sifat jihatdan o'sishga;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqdorining o'sishi davlat byudjetiga tushayotgan soliq tushumlarining ko'payishiga;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi ish haqining ortishi va aholi farovonligining yuksalishiga;
- jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh ishlab chiqarish orqali mamlakat eksport salohiyatining o'sishiga olib keladi.



Investitsion jozibadorlikni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy kategoriyani baholashda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Biz ularni quyidagi uch guruhga ajratgan tarzda o'rganishimiz mumkin:

- iqtisodiy-matematik uslublar;
- omillar tahlili;
- ekspert tahlili.

Ushbu uslublarning umumiy maqsadi investitsion jozibadorlikni baholash bo'lsa-da, ularning turli yutuq va murakkabliklari mavjud hisoblanadi (2.6-jadvalga qarang).

1-jadval

Investitsion jozibadorlikni baholashning nazariy-uslubiy asoslari¹

	Iqtisodiy-matematik uslublar	Omillar tahlili	Ekspert tahlil
Uslubning mohiyati	Korrelyatsion va dispersion tahlillar, optimallashtirish, matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanishni anglatadi	Mohiyat jihatidan yaqin bo'lgan ko'rsatkichlarni guruhlashtirish orqali tahlil etish	O'rganilayotgan ob'yektning mutaxassis va rahbarlar tomonidan dalillarga asosan bayonotlarni berilishi
Afzalliklari		– hududdagi holatni aks ettiruvchi statistik	– nafaqat doimiy statistik, balki bir

¹ Мустафакулов Ш., Муродуллаев Н. Мамлакатимиз иқтисодиётини модернизациялашда кенг қўламли инвестиция сиёсати// "BIZNES - ЭКСПЕРТ". 2014.24.03. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/19781-mamlakatimiz-iqtisodiyotini-modrnizatsiyalashda-kng-kolamli-invstitsiya-siyosati>



	– tizimlashtirilgan algoritm. – olingan natijalarning birxilligi – “inson omili”ning kamaytirilishi	ma'lumotlarni tartiblashtirish – ko'p omilli aloqadorlikning hisobga olinishi – majmuaviylik	martalik sifatli ma'lumot – tajribali ekspertning ishonchli ma'lumoti
		– investitsion faoliyatdan kelib chiqib hududlarni guruhlashtirish imkoni. – natijalarning tushunarlilik	
Kamchiliklari	– modelga olingan ko'rsatkichlarning asoslanmaganligi – so'nggi natijaga har bir ko'rsatkichni qo'shgan ulushini baholash imkoniyati mavjud emas	– ulush va indikatorlarning o'rnatilgan me'yorlari mezonining sub'yektivligi. – tanlangan barcha omillarning yetarli asoslanmaganligi	– ekspert bahosining sub'yektivligi. – yuqori mehnat sig'imkorligi. – yuqori qiymat.
		– ishtirokchilar zrtasidagi reytingdagi haqiqiy masofani aniqlash imkoni yo'qligi. – ko'rsatkichlarni aniqlashning shaffof emasligi	

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan R.H.Bozorov investitsion faoliyatni baholashda ikki metodologik yondashuvni ajratib ko'rsatadi. Jumladan, moliyaviy va iqtisodiy baholash tarzida ajratib ko'rsatadi. “Moliyaviy baholash investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlatiladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan



muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning yetarli moliyaviy resurslari bo'lishini belgilashdir.

Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyihasining potentsial qobiliyati, shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sish sur'atini yetarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi.²

Hududlarning investitsion potentsiali haqida fikr yuritilganda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning qo'shilgan qiymat yaratishdagi jarayonga ta'siri muhim ahamiyatga ega. Sababi, jalb qilingan xorijiy mablag'lar hududning sig'imkorligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy o'sishida o'z aksini topishi kerak.

Qayd etish mumkini, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan viloyatlari va Toshkent shahri hududlarida xorijiy mablag'larga bog'liq tarzda iqtisodiy o'sish ma'noga ega bo'lmoqda. Ushbu hududlarda Namagan va Qashqadaryo viloyatlarida bir-birlik xorijiy investitsiya yalpi hududiy mahsulot yaratishda 5 birlik sinergetik samara berayotganligini ko'rish mumkin.

Fikrimizcha, hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar bilan yalpi hududiy mahsulotlar o'rtasidagi o'zaro ijobiy bog'liqlikni ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

- hududga jalb etilayotgan investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotga nisbatan ulushini barqaror tarzda bo'lishini ta'minlash;
- investitsiyalarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarish tendentsiyalarini keskin tarzda bo'lishini oldini olish;
- investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulot yaratishdagi o'rnini ijobiy bo'lishini ta'minlash uchun investitsiyalar hajmining yalpi mahsulotga nisbatan ulushini xalqaro mezonlar bo'yicha bo'lishini (25-40 foiz) ta'minlashga e'tibor qaratish.

Fikrimizcha, Qashqadaryo, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida yalpi hududiy mahsulotning yaratilishida mahalliy va xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi bilan uyg'unlikda rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

² Бозоров Р.Х. Ўзбекистонда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, 2018 йил март-апрель



Ta'kidlash lozim, mazkur hududlarda jalb etilayotgan investitsiyalar iste'mol xususiyatiga emas, balki qiymat yaratish xususiyatiga mansub bo'lmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, Jizzax viloyatida mahalliy investitsiyalarning rivojlanish tendentsiyalari qo'shimcha qiymat yaratishda bilvosita ta'sir etgan bo'lsada, xorijiy mablag'larning yalpi mahsulot yaratishdagi ulushi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni o'zida aks ettirmoqda.

Ta'kidlashimizcha, investitsion potentsiali ijobiy xususiyat kasb etadigan viloyatlar qatoriga Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahri kabi hududlarimizni keltirishimiz mumkin. Shu boisdan aytish mumkinki, qayd etib o'tilgan hududlarda mavjud salohiyatdan kelib chiqqan holda investitsion faoliyat ta'minlanmoqda.

Bizningcha, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- tabiiy-iqlim sharoitini inobatga olgan holda investitsiyalarni joylashtirish;
- ixtisoslashuv darajasini inobatga olib, investitsion loyihalarni amalga oshirish;
- raqobat ustunligi imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, ustuvor sohalarga investitsiyalarni joylashtirish;
- investitsiyalarning hajmiga emas, balki uning iqtisodiy o'sishdagi ijobiy ta'sirini inobaga olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori — PQ-4947-son, 2017-yil 7-fevral. "Harakatlar strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari, 2023–2024 yillar.
3. Xodjiev, N. A. (2020). Investitsion jarayonlarni boshqarishning zamonaviy uslublari. Toshkent: Iqtisod-Mol.
4. World Bank (2023). Uzbekistan Country Economic Update.
5. Karimov, I. A. (2015). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.



6. Soliyev, B. (2022). “Hududiy investitsion salohiyatni oshirish omillari”, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3.
7. UNCTAD (2023). World Investment Report.
8. Rasulov, D. (2021). “Investitsion muhitni yaxshilash yo‘llari”, Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, №4.